

# TADQIQOT VA INNOVATSIYALAR JURNALI

ЖУРНАЛ ИССЛЕДОВАНИЯ И ИННОВАЦИИ | JOURNAL OF RESEARCH AND INNOVATIONS

**NURMATOVA Sadbarxon Erkinovna**

*Farg‘ona davlat universiteti*

*Sirtqi bo‘limi Ijtimoiy fanlar kafedrasi*

*o‘qituvchisi*

<https://doi.org/10.5281/zenodo.15595253>

## TILDA BAHO MUNOSABATINING IFODALANISHI VA UNING NAZARIY ASOSLARI

### ANNOTATSIYA

Maqolada tilshunoslik sohasida qo‘llaniladigan baho munosabati tushunchasi, mohiyati, tilshunoslik taraqqiyotining keyingi davrlarida tilda baho munosabatining ifodalanishi muammosi tilshunoslarni qiziqtirib kelayotgan muammolardan biridir ekanligi, biroq tilshunoslikda til birliklarining baho ifodalashi xususiyati to‘liq o‘rganilmaganligi bayon etilgan.

Shuningdek maqolada tilshunoslikda baho munosabatining subyektiv, obyektiv-subyektiv hamda subyektiv-obyektiv turlari farqlari, baho munosabatini belgilashda nutq egasining muayyan voqelikka bo‘lgan salbiy yoki ijobiy munosabati tahlil etiladi.

**Kalit so‘zlar :** nutqiy muloqot jarayoni, baho munosabati, so‘zlovchi shaxs, adresat, baho ma’lumoti, verbal ifoda, subyektiv baho, subyekt, predmet, baholash, subyekt, obyekt, asos, etalon, undov so‘zlar, pragmatik vazifalar, emotsional baho, muloqot muhiti, modallik.

## ВЫРАЖЕНИЕ ОЦЕНОЧНОГО ОТНОШЕНИЯ В ЯЗЫКЕ И ЕГО ТЕОРЕТИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ

### АННОТАЦИЯ

В статье рассматриваются понятие и сущность оценочного отношения, используемого в языкознании, проблема выражения оценочного отношения в языке на поздних этапах развития языка является одной из проблем, интересующих лингвистов, однако природа оценочного выражения языковых единиц в языкознании до конца не изучена.

В статье также анализируются различия между субъективным, объективно-субъективным и субъективно-объективным типами оценочного отношения в языкознании, а также отрицательное или положительное отношение говорящего к той или иной действительности при определении оценочного отношения.

**Ключевые слова:** процесс речевого общения, оценочное отношение, говорящий, адресат, оценочная информация, речевое высказывание, субъективная оценка, субъект, объект, оценка, предмет, объект, основа, эталон, восклицательные слова, прагматические задачи, эмоциональная оценка, среда общения, модальность

## EXPRESSION OF EVALUATIVE ATTITUDE IN LANGUAGE AND ITS THEORETICAL FOUNDATIONS

### ANNOTATION

The article discusses the concept and essence of evaluative attitude used in linguistics, the problem of expression of evaluative attitude in language in the later stages of linguistic development is one of the problems that interest linguists, but the nature of evaluative expression of language units in linguistics has not been fully studied.

The article also analyzes the differences between subjective, objective-subjective and subjective-objective types of evaluative attitude in linguistics, and the negative or positive attitude of the speaker to a particular reality when determining the evaluative attitude.

**Keywords:** speech communication process, evaluative attitude, speaker, addressee, evaluative information, verbal expression, subjective assessment, subject, object, assessment, subject, object, basis, standard, exclamation words, pragmatic tasks, emotional assessment, communication environment, modality

### *Kirish*

Nutqiy muloqot jarayonida nutq egasi uzatilayotgan axborotni ifoda etish bilan birga, unga o'z munosabatini bayon etadi. Bu jarayonda nafaqat so'zlovchi, balki tinglovchida ham voqelikka nisbatan baho munosabati shakllanadi. Sh.Safarov qayd etganidek, «nutqiy faoliyat tashabbuskori, ya'ni so'zlovchi shaxs obyekt haqidagi ma'lumotni tinglovchiga yetkazish uchun ushbu obyektning «qandaydir» xislatlarini tanlaydi va shu xislat asosida obyektga baho beradi hamda baho ma'lumotini adresatga uzatadi. Bunday baho berish axboroti esa, o'z navbatida, tinglovchiga ta'sir o'tkazish va uni biror bir xatti-harakat, faoliyatga undash maqsadi uchun xizmat qiladi» (Safarov 2008: 189). Ma'lumki, til voqelikni verbal ifoda etishga xizmat qiluvchi muhim aloqa qurolidir. Shu bilan birga, til yordamida inson voqelikka o'z munosabatini ham ifoda etadi. Demak, til voqelikda kechayotgan hodisalarni nomlash bilan birga, nutq egasining idrok etilgan obyektga bo'lgan munosabatini ham bayon etishga xizmat qiluvchi vositadir. Tilda baho munosabatining ifodalanishi muammosi tilshunoslarni qiziqtirib kelayotgan muammolardan biridir. Biroq tilshunoslikda til birliklarining baho ifodalashi xususiyati to'liq o'rganilgan emas.

### *Adabiyotlar tahlili va metodologiya*

Tilshunoslikda baho munosabatining subyektiv, obyektiv-subyektiv hamda subyektiv-obyektiv turlari farqlanadi [6].

Baho munosabatini belgilashda nutq egasining muayyan voqelikka bo'lgan salbiy yoki ijobiy munosabati tahlil etiladi. R.Qo'ng'urovning qayd etishicha, «so'zlovchining obyektiv borliqqa va o'z nutqiga ijobiy yoki salbiy munosabatining ifodalanishi – subyektiv baho hisoblanadi» (Qo'ng'urov R. 1980: 42). Baholash faoliyatida quyidagi qismlar ajratiladi: subyekt, predmet, baholash xususiyati va asosi (Ivin 1970: 21). Ba'zi manbalarda ko'rsatilishicha, «baholash harakatining yuzaga kelishida subyekt, obyekt, asos, etalon (namuna) va baholash belgisidan iborat besh unsurning mavjudligi majburiydir. Baholash dastlabki o'rinda subyekt-obyekt munosabatida, ya'ni subyekt tomonidan obyektning muhimligi, e'tiborga molikligi, miqdor va sifat jihatidan ajralib turishini aniqlash jarayonida hosil bo'ladi. Ushbu jarayonda subyekt obyektning baholanayotgan xususiyatini ideal namuna yoki me'yorga qiyoslaydi hamda ushbu me'yorga qay darajada mos kelishi yoki uzoqlashishiga nisbat beradi.

Nihoyat, barcha «o'lchovlar» bosqichidan o'tgan baho lisoniy belgi vositasida voqelanadi. Bahoning yuzaga kelishi va baholash harakatining faollashuvi uchun mantiqiy asos talab qilinadi. Baholash harakatining mantiqiy asosida emotsiya intensiyasi yotadi» (Safarov 2008: 184-185). Baholashni amalga oshiruvchi nutq subyektini voqelikka munosabat bildirishda uning eng muhim sifatini belgisiga e'tiborini qaratadi. Baholash munosabati baho obyektini ham taqozo etadi.

Baho obyektini vazifasida voqelikdagi muayyan narsa-predmet yoki hodisa-jarayon kabilar keladi. Baho obyektini ko'pincha shaxs va hodisalar bo'lib, ularga baho berilganda inson tomonidan muhim deb idrok etilgan jihatiga inobatga olinadi. Baholash shaxsiga nisbatan amalga oshganda dastlab uning shaxs sifatidagi xususiyatlari nazarga olinadi. O'zbek tilida qator til birliklarining subyektiv baho ifodalashi stilistik jihatdan chuqur o'rganildi. Biroq bu masalaning pragmatik jihatini chuqur o'rganish dolzarb masalalardan biridir.

Ma'lumki, undov so'zlar til egalarining hissiy kechinmalarini, buyruq-xitoblarini ifodalovchi so'zlar guruhidir. Til egalari hissiy kechinmalarini ifodalash jarayonida voqelikka nisbatan emotsional baholarini ham bildiradilar. Bunday holatda nutqiy faoliyat til egasining kommunikativ maqsadi va istagi bilan bog'liq holda amalga oshadi.

Nutqiy faoliyatda undov so'zlarning nutq egalari maqsadi va istagini ifoda etishi ularning lingvopragmatik tadqiq obyektini ekanligidan dalolat beradi. Muloqot muhitida undov so'zlarning rang-barang pragmatik vazifalari yuzaga chiqadi. Undov so'zlar nutq egasining subyektiv baho munosabatini ifodalab kelganda ham pragmatik vazifa bajaradi. Tilda modallikning ifodalanishi masalasiga munosabat bildirgan Y.Y.Kordi undov so'zlar va turli lug'aviy birliklar orqali ifodalanuvchi emotsional bahoni modallikning alohida turi sifatida ajratadi [5].

Darhaqiqat, undov so'zlar orqali ifodalanuvchi emotsional baho subyektiv modallik kategoriyasiga xos. Nutq egasi voqelikni tilga ko'chirar ekan, yuzaga kelgan hissiy kechinmalarini ifoda etish jarayonida ushbu voqelikka shaxsiy munosabatini ham bildiradi. Natijada ifoda etilayotgan axborotda subyektiv munosabat shakllanadi. Undov so'zlar orqali ifodalangan bunday baho munosabati pragmatik aspektga aloqador hodisadir [6].

O'zbek tilida emotsional undov so'zlar orqali subyektiv baho ancha yorqin aks etadi. Bu turdagi undovlar buyruq-xitob undovlaridan nutq egasining ruhiy holati bilan bog'liq tarzda turli xildagi hissiyotlari (quvonchi, qayg'usi, taajjubi, gumoni, e'tirozi kabilar)ni ifoda etishi jihatidan farqlanadi. Emotsional undovlarning hissiy kechinmalarni aks ettirish jarayonida baho munosabatini ham ifoda etishi til egasining emotsional baho ifodasiga bo'lgan ehtiyoji va maqsadi bilan bog'liq kechadi.

### **Natijalar**

Ma'lumki, har qanday subyektiv baho salbiy yoki ijobiy xarakterda voqelanadi. Tilshunoslikda «so'zlovchining obyektiv borliqqa va o'z nutqiga ijobiy yoki salbiy munosabatining ifodalanishi subyektiv baho» [3] sifatida tavsiflanadi.

Voqelikning nutq egasi nuqtai nazaridan ijobiy deb qabul qilingan tomoniga munosabat bildirilganda subyektiv baho ijobiy tus oladi, voqelik nutq egasi tomonidan salbiy hodisa sifatida idrok etilganda unga munosabat salbiy xarakterda bo'ladi. Sh.Safarovning fikricha, baholash harakatining mantiqiy asosida emotsiya intensiyasi yotadi, baholash dastlabki o'rinda subyekt-obyekt munosabatida, ya'ni subyekt tomonidan obyektning muhimligi, e'tiborga molikligi, miqdor va sifat jihatidan ajralib turishini aniqlash jarayonida hosil bo'ladi, ushbu jarayonda subyekt obyektning baholanayotgan xususiyatini ideal namuna yoki me'yorga qiyoslaydi hamda ushbu me'yorga qay darajada mos kelishi yoki uzoqlashishiga nisbat beradi, nihoyat, barcha «o'lchov»lar bosqichidan o'tgan baho lisoniy belgi vositasida voqelanadi [4].

Undov so'zlar ham voqelik nutq egasi tomonidan ideal namuna sifatida baholangan vaqtda ijobiy munosabatni, me'yordan uzoqlashgan hollarda esa salbiy baho munosabatini verbal ifodalovchisi sifatida pragmatik vazifa bajaradi. Bu holat nutq egasining ruhiy holati hamda voqelikni qanday idrok etishi kabilarga ham bog'liq. Masalan, o'zbek tilidagi undov ham salbiy, ham ijobiy baho munosabatini ifodalay oladi.

Qiyoslang: – *Oh* (A.Qodiriy. «*Mehrobdan chayon*») *Oh* (Abbos qo'lidan olgan xanjarga qarab) (M.Shayxzoda. «*Mirzo Ulug'bek*») E'tibor berilsa, birinchi misolda qo'llangan undovi nutq egasining kuchli hissiyotini ifoda etish bilan bir qatorda, ijobiy bahosini ham aks ettirgan, keyingi misolda esa bu undov so'z nutq egasining voqelikka nisbatan salbiy munosabatini ifoda etishga qaratilgan.

Salbiy munosabat matnda qo‘llangan leksemasi orqali yanada kuchaygan undovining har ikki nutqiy qo‘llanishda turli pragmatik ma‘nolarni hosil qilishi til egasining ruhiy holati va kommunikativ maqsadi bilan bog‘liq. Birinchi matndagi h undovi nutq egasining ijobiy bahosi, keyingi matnda esa salbiy munosabatini ifodalab kelgan. Shunisi xarakterliki, o‘zbek tilida undov so‘zlar orqali hosil qilingan baho munosabati, asosan, xususiy munosabat tarzida yuzaga chiqadi. M.Hakimov matnda aks etgan emotsional munosabat haqida fikr yuritar ekan, quyidagilarni bayon qiladi: «shaxs nutqni hosil qilishda faqat uning mavzusi bilan qiziqib qolmasdan, nutq jarayonida o‘z his-tuyg‘ularini ham bildiradi.

Nutq jarayonidagi his-tuyg‘ulari va ichki kechinmasi shaxsning xususiy munosabati sifatida shakllanadi. Xususiy emotsional munosabat, albatta, matn muallifining ruhiy holatidan kelib chiqadi va bevosita matn mazmunidan anglashilib turadi» [4]. Undov so‘zlar orqali nutq egasiga xos qanday xususiy munosabat ifoda etilgani muloqot muhiti, kontekst asosida belgilanadi. Bu masalaga munosabat bildirgan D.Lutfullaeva, L.Boboxonovlar quyidagilarni yozishadi: «Undov so‘zlarning nutq subyekting kommunikativ niyati bilan bog‘liq holda pragmatik mazmuni hosil qilishida muayyan mikromatn (minimal kontekst) muhim o‘rin tutadi. Chunki bunday kontekst, hech bo‘lmaganda, nutq ishtirokchilari, nutqiy vaziyat, muloqot jarayoni amalga oshirilayotgan zamon va makon, nutq obyekt, so‘zlovchining voqelikka hamda axborot mazmuniga munosabati kabilar haqidagi eng kichik ma‘lumotni o‘zida jamlaydi. Agar undov so‘zning pragmatik ma‘nosi so‘zlovchining kommunikativ niyati asosida shakllansa, bu kabi minimal kontekstga ehtiyoj tug‘iladi.

Agar nutq ishtirokchilari ayni kontekst bilan bog‘lanmasalar, undov so‘zning ko‘zda tutilgan pragmatik ma‘nosini anglab yetmaydilar» [1]. Ma‘lum bo‘ladiki, undov so‘zning pragmatik ma‘nosi nutq egasining kommunikativ niyatiga bog‘liq holda shakllansa, undov so‘z ifoda etgan pragmatik mazmunga faqat kontekst asosida aniqlik kiritiladi. Sh.Safarov ham bu haqda fikr yuritar ekan, ingliz tilidagi ayrim undov gaplarda aks etgan emotsional bahoni matnsiz belgilab bo‘lmasligini bayon qiladi: «Shu o‘rinda emotsional baho berish vositasi bo‘lgan gaplarning haqiqiy mazmunini matnsiz aniqlash qiyin vazifa ekanligini eslatmoqchiman. Binobarin, ingliz tilidagi *What a life that is!* undovini intonatsiyaning o‘zgarishi hamda qaysi vaziyatda qo‘llanishiga nisbatan tarjima qilish mumkin» [6].

### ***Muhokama***

Undov so‘zlar orqali ifodalangan baho munosabati nutq egasining hissiy kechinmasi asosida, u orqali hosil bo‘lar ekan, axborotni qabul qilayotgan tinglovchi ham mavjud hissiy kechinma va u orqali bayon qilinayotgan emotsional bahoni aniq idrok etishi lozim bo‘ladi. Agar undov so‘zlar orqali ifoda etilayotgan hissiy kechinma va emotsional baho tinglovchi tomonidan turli sabablarga ko‘ra (tilni bilmaslik, til birligining pragmatik imkoniyatini his qilmaslik kabilar) idrok qilinmasa, undov so‘zning muloqot muhitida yuzaga chiqayotgan kommunikativ pragmatik vazifasiga to‘g‘ri baho berilmaydi.

### ***Xulosa***

Undov so‘zlar orqali ifodalangan emotsional baho implitsit tarzda ifodalangan hollarda ham shu holat kuzatilishi mumkin. Emotsional baho implitsit tus olgan hollarda unga faqat kontekst asosida aniqlik kiritiladi. Bunday vaqtda undov so‘zlar matnning implitsit birligiga aylanadi. Quyidagi mikromatnga tahliliga e‘tibor qaratamiz: *O‘h-ho‘-o‘-o‘*, (*A.Qodiriy. «Jinlar bazmi»*). Ushbu matnda qo‘llangan – *O‘h-ho‘-o‘-o‘* undov so‘zi orqali nutq egasining hayrati, taajjubi bilan birga qo‘rquv tarzidagi implitsit xabari ham aks etadi. Nutq egasi mavjud voqelikni idrok etish jarayonida yuzaga kelgan hissiyotini beixtiyor ifoda etar ekan, ko‘z oldida namoyon bo‘lgan ushbu voqelikka shaxsiy munosabatini ham izhor etadi, natijada uzatilayotgan axborotda subyektiv munosabat shakllanadi.

Xullas, o‘zbek tilidagi undov so‘zlar nutqda o‘ziga xos pragmatik vazifalari bilan qatnashadi. Bu turkum so‘zlar orqali nutq egasining xususiy subyektiv bahosi ifoda etilganda salbiy yoki ijobiy xarakterdagi munosabat yuzaga chiqadi.

**IQTIBOSLAR. ЧОККИ. REFERENCES.**

1. Lutfullaeva D., Boboxonov L. Undov so‘zlarning pragmatik xususiyati G‘G‘ Adabiy ta’lim va yoshlar tarbiyasi. - Toshkent: TDPU, 2010. - B.106-108.
2. Farzad Sharifian. Cultural Conceptualisations and Language. Amsterdam, Philadelphia 2011. P.176.
3. Qo‘ng‘urov R. Subyektiv baho formalarining semantik va stilistik xususiyatlari. - Toshkent: Fan, 1980. – 42.
4. Safarov Sh. Pragmalingvistika. - Toshkent: O‘zbekiston Milliy ensiklo-pediyasi. 2008. – B. 184-185.
5. Kordi Ye.Ye. Modalnie i kuzativnie glagoli v sovremennom fransuzkom yazike. – L.: Nauka, 1988. – S.13.
6. Farzad Sharifian. Cultural Conceptualisations and Language. Amsterdam, Philadelphia 2011. P.168.